



# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni 2022- yil 1- aprel holatiga 2945,0 ming kishini tashkil etib, 2022- yil boshidan 13,9 ming kishiga yoki 0,5 % ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1908,8 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 64,8 %), qishloq aholisi soni 1036,2 ming kishini (35,2 %) tashkil etdi.

## E'tibor bering: 2022- yil yanvar-mart


- Aholi soni **13,9 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **17,5 ming nafarni** tashkil etdi.
- **3,0 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **3,6 mingta nikoh** va **1,1 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Namangan viloyati aholisining umumiy o'sishi (2022- yil yanvar-mart oylarida)




## Demografik holat

### Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi (2022- yil 1– aprel holatiga, 1 kv.km.ga kishi)



Aholi zichligi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Namangan viloyati bo'yicha 1 kv.kmga 395,8 kishi, aholining eng zich joylashuvi Namangan shahri (1 kv.kmga 4431,0 kishi), Namangan (923,0 kishi), To'raqo'rg'on (870,0 kishi) va Norin (808,9 kishi) tumanlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, aksincha holat Pop tumanida (78,3 kishi) va Mingbuloq tumanida (178,1 kishi) to'g'ri kelmoqda.

### Namangan viloyati doimiy aholisi soni (2022- yil 1-aprel holatiga ming kishi)



## Demografik holat

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskul-larning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Tug'ilish.** 2022- yilning yanvar-mart oylarida 17,5 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 24,2 promilleni tashkil etdi, hamda 2021 yilning mos davriga nisbatan 2,7 promillega oshganligi (2021- yilning yanvar-mart oylarida 21,5 promille bo'lgan) kuzatildi.


O'g'il bolalar:  
9,0 ming nafar



Qiz bolalar:  
8,5 ming nafar



Tumanlar (shahar) kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsienti  
(2022- yil yanvar-mart, 1000 aholiga nisbatan, promille)




## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2022- yilning yanvar-mart oylarida 3,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsienti 4,2 promilleni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 62,4 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,5 %i - o'simtalardan, 3,7 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,2 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 7,4 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,3 %i - yuqumli va parazitari kasalliklaridan hamda 12,5 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2022- yil yanvar-mart holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)




## Demografik holat

**Nikoh.** 2022- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,6 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 5,0 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2021- yilning mos davriga nisbatan Norin tumanida 5 taga va Uchqo'rg'on tumanida 1 taga ko'paygan.

**Tumanlar (shahar) kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsienti**  
(2022- yil yanvar-mart holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




## Demografik holat

**Nikohdan ajralishlar.** 2022- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 1078 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,5 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar sonida 2021- yilning mos davriga nisbatan Namangan shaharda 84 taga va Chust tumanida 55 taga ko'paygan.

**Tumanlar (shahar) kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti**  
(2022- yil yanvar-mart holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



## Demografik holat

**Migratsiya.** 2022- yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 649 kishini, ko'chib ketganlar soni esa 1248 kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 599 kishi bo'lib, 2021- yilning mos davrida minus 726 kishi bo'lgan.


### Aholi migratsiyasi (kishi)

	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart
<b>Ko'chib kelganlar</b>	1233	649
<b>Ko'chib ketganlar</b>	1959	1248
<b>Migratsiya saldosi</b>	-726	-599




## Demografik holat

### Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib kelganlar soni



### Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib ketganlar soni






## Demografik holat

**Namangan shahridagi demografik holat.** Namangan viloyatining markazi Namangan shahrining doimiy aholisi soni 2022- yil 1- aprel holatiga 664,7 ming kishini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 16,6 ming kishiga yoki 2,6 % ga o'sgan.

### Namangan shahri aholisi tabiiy harakati (1000 aholiga nisbatan, promilleda)



2022- yilning yanvar-mart oylarida 4,5 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 27,9 promilleni tashkil etdi va 2021- yilga nisbatan 2,2 ga (2021- yilning mos davrida 25,7 promille bo'lgan) o'sdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida 826 ta o'lim qayd etilgan. O'lim koeffitsienti 5,1 promilleni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan — 0,0 promillega teng (2021- yilning mos davrida 5,1 promille bo'lgan).

FHDYO organlarida 2022- yilning yanvar-mart oylarida 590 ta nikoh va 268 ta nikohdan ajralishlar qayd etildi. 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 3,6 promilleni tashkil qilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,6 promillega kamaydi. (2021- yilning mos davrida 4,2 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,6 promilleni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega (2021- yilning mos davrida 1,2 promille bo'lgan) o'sdi.

## Demografik holat

### Namangan shahridagi demografik holat.

